

Bajarilishi uch yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Fitoterapiya veterinariya-yirik shoxli hayvonlarda tug‘ruqdan keyingi endometritlarni davolash va oldini olishda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan mahalliy dori vositalarini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - sigirlarda tug‘ruqdan keyingi endometritlarni keltirib chiqaruvchi sabablarini, kechishi, ertachi diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari o‘rganiladi; - aholi honadonlarida va chorvachilik fermer xo‘jaliklarida sigirlarda endometritlarni oldini olishda 100% tabiiy dori vositalarni yaratiladi, endometritlarda ajraladigan eksudatlardan mikroorganizmlar turlarini aniqlash va ularning antibakterial dori vositalariga chidamliligi aniqlanadi; - Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlari hududlarida o‘sadigan mavjud dorivor o‘simliklar aniqlanadi va ularning tarkibidagi dorivor moddalar aniqlandi, dorivor o‘simliklardan yalig‘lanishga qarshi va antibakterial, antiseptik xususiyatiga ega o‘simliklar tanlab olinib uladan dori preparatlarini ishlab chiqish texnologiyalari yaratiladi; - dorivor o‘simliklardan ekstrakt, damlama, qaynatmalar tayorlash texnologiyalari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.